XALİQ DEPUTATLARİ XOJELI RAYONLİQ KEŃESINIŃ SH E SH I M I

XALQ DEPUTATLARI XO‘JAYLI TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 27 - iyun VI-50-150-13-191-K/22 Xo‘jayli tuman hokimligi

**Xalq deputatlari Xo‘jayli tuman Kengashining 2022-yil 27-iyun kungi “Tuman hududida qabristonlarning nomlarini va madaniy dam olish bog‘i nomini tasdiqlash haqida”dagi VI-50-141-13-191-K/22-sonli Kengash qarorini bekor qilish haqida**

O‘zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonunining 24-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativhuquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3333-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlagan qoidaning 5-bobi 91, 92, 93-bandlariga asosan

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Xo‘jayli tuman Kengashi kotibiyat mudiri A.Xudaybergenovning 2022-yil 23-iyun kungi Xalq deputatlari Xo‘jayli tuman Kengashining 2022-yil 23-iyun kungi “Tuman hududida qabristonlarning nomlarini va madaniy dam olish bog‘i nomini tasdiqlash haqida”dagi VI-50-141-13-191-K/22-sonli Kengash qarorini bekor qilish haqidagi 02-08/11-sonli bildirishnomasi ma’umot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xo‘jayli tuman Kengashining 2022-yil 23-iyun kungi “Tuman hududida qabristonlarning nomlarini va madaniy dam olish bog‘i nomini tasdiqlash haqida”dagi VI-50-141-13-191-K/22-sonli Kengash qarori va ilovasi tuman Adliya bo‘limi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmaganligi va xulosa olinmaganligi sababli bekor qilinsin.

3. Ushbu qaror Xalq deputatlari Xo‘jayli tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida tasdiqlash uchun tavsiya etilsin.

4. Xo‘jayli tumani hokimligi matbuot bo‘limi (S.Xurmetullaeva)ga ushbu qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish va «Xojeli haqıyqatı» gazetasida yoritish topshirilsin.

5. Qaror rasmiy tarzda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Xo‘jayli tumani Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklansin.

**Xalıq deputatları Xojeli rayonlıq Keńes baslıǵı** **J.Ermashev**